

tadqiqotlar tahlili

Hadis ilmi maktabi katta o'qituvchisi

Abdullayev Olimjon.

Anatatsiya: Ushbu maqola, Buyuk bobokalonimiz Imom Termiziy va u zotning shox asari “Sunan Termiziy” borasida zamonamizda olib borilgan tadqiqotlar, ularda yoritib o'tilgan mavzular, ochib berilmagan jihatlari, allomani hadis ilmi sohasiga qo'shgan hissasi yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sunan, Jome', savdo, zaif hadis, ibodat, aqida.

Muhaddisning ilmiy merosi bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar tahlili.

Ulug' ulamolar vatani sanalgan O'zbekistondan juda ko'p ilm-ma'rifat rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar yetishib chiqqan. Ular qoldirgan ilmiy-ma'naviy boylikni o'rganish, bu borada izlanishlar qilish borasida vatanimizda salmoqli ishlar qilinib kelinmoqda. Buyuk bobokalonimiz Abu Iso Termiziyning qoldirgan ilmiy-merosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishib chiqamiz.

Ahmad Sa'd Ibrohim Abdurrahmon Usmon Damanhuriy “Imom Termiziyning aqidaviy va fiqhiy mazhabi” borasida olib borgan tadqiqoti. Muallif ilmiy ishida aqida va fiqhiy qarashlariga kirishishdan oldin Imom Termiziyning hadis ilmida tutgan o'rni va shox asari bo'lgan “Sunan Termiziy” ning ahamiyati borasida so'z yuritib, so'ng aqidaviy va fiqhiy qarashlarga kirishgan.

Muallif ilmiy ishida Imom Termiziyning ilm talabida Iroq, Xuroson, Haramayn va boshqa ko'plab shaharlarga safar qilganligi, bu asnoda Molik ibn Anas va Lays ibn Sa'dga tengdosh bo'lgan ko'plab muhaddislardan hadis rivoyat qilgani va Imom Termiziydan Ahmad ibn Yusuf Nasafiy, Asad ibn Hamdovayh, Abdulloh ibn Nasr Bazdaviy, Abdulloh ibn Muhammad ibn Mahmud Nasafiylar kabi olimlar hadis rivoyat qilganligini aytib o'tgan.

Ahmad Damanhuriy Imom Termiziyning shox asari bo‘lmish “Sunan Termiziy” asari allomaning qanchalik fiqh va hadisda mohir ekanligiga dalolat qilishini ham takidlab o‘tgan. Termiziyning shox asari muhaqqiq ulamolar nazdida olti sahih kitobning uchinchi sanaladi.

Tadqiqotchi ilmiy ishida Imom Termiziyning aqidasi dalolat qiladigan ayrim hadislarni keltirib o‘tgan. Tadqiqotda mutashobih hadislar keltirilib, ularni salaf ulamolari qanday tushunganligi, bida’tchi toifalar qanday tushunganligi ham qisman yoritib o‘tilgan¹.

Muallif tadqiqotida iymon masalasi, amalsiz inson iymondan chiqmasligi, Imom Termiziyning tavil borasidagi qarashlari va bularga dalolat qilgan ba’zi hadislarni keltirib o‘tgan.

Ahmad Damanhuriy tadqiqotida Imom Termiziyning fiqhiy qarashlarini yoritib, u zotni mujtahid bo‘lganligi lekin to‘rt mazhabboshilar singari emas balki masalalarni tarjih qiluvchi mujtahidlardan sanalishi borasida ma’lumotlar keltirib o‘tgan.

Muallif Imom Termiziy gohida Imom Molikni mazhabini tarjih qilganligi, gohida esa Imom Shofeiyni mazhabini ustun qo‘yganligini ham bayon qilib o‘tgan.

Bu tadqiqotda Imom Termiziy aqidada ahli-hadislardan bo‘lgan salaf ulamolarning yo‘lida bo‘lib u zotning mazhabi tafviz ekanligi, gunoh kabira qilgan inson uni halol sanamasa iymondan chiqmasligi bayon qilib o‘tilgan. Imom Termiziy shox asarida sahobalar va tobeinlarning fiqhiy qarashlarini, mazhablarning dalillarini keltirib o‘zini nazdida dalili kuchli bo‘lgan mazhabni tarjih qilib o‘tganligi borasida so‘z yuritilgan. Lekin bu tadqiqotda Imom Termiziyning jome’ asari, undagi aqidaga oid hadislari va bu hadislar bilan bida’tchi toifalarga raddiya berishdagi u zotni uslubi, asarda qo‘llagan istelohlari bilan hadis istelohiga qo‘shgan hissasi kompleks tarzida keng yoritib berilmagan.

Mahmud Fuziy Kabisiy “Tarixu-l-islom va Vafayotu-l-mashohir kitobidagi Termizlik allomalar” nomli tadqiqotida Imom Termiziy borasida ilmiy

¹ Ahmad Sa’d Ibrogim Abdurramon Usmon Damanhuriy. Abu Iso Termiziyning Fiqhiy va aqidaviy mazhabi // Termiziy ulamolarning islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi. – 2021. – № 1. – B. 20-31.

ish olib borgan. Lekin bu tadqiqotda “Vafayot” asarida keltirib o‘tilgan ulamolar orasida imom Termiziyning ham sanab o‘tib, u zotni hayoti, tug‘ilishi va vafoti, ustozlari, tug‘ilgan qishlog‘i borasida so‘z yuritgan².

Bu ilmiy ish allomaning tavalludi, yashagan qishlog‘i va u zotning nasablari qisman yoritib o‘tilgan.

Tadqiqotda Imom Termiziyning “Jome” asari va undagi hadis ilmiga doir istelohlar va undagi aqidaga doir hadislar yoritib o‘tilmagan.

Mahmud Abdulloh Abdurramon Abdulhalim “Imom Termiziy va ilmiy merosi” borasida tadqiqot olib borgan. Bu tadqiqotda muallif Imom Termiziy Imom Buxoriyning shogirti bo‘lishiga qaramasdan u zot bilan Qutayba ibn Said, Ali ibn Hujr Marvaziy va Hannod ibn Sariy kabi ustozlarni qo‘lida tahsil olishda sherik hisoblanishi borasida va Imom Termiziyning ilm talabida Huroson, Iroq, Shom kabi shaharlarga ilm talabida safar qilganligi borasida ma’lumot berganlar. Muallif bu ilmiy ishida Imom Termiziyning shox asari bo‘lmish “Jomeu-t-Termiziy” asarida Abu Dovud, Imom Buxoriy kabi olimlardan hadislar rivoyat qilganini keltirib o‘tgan.

Tadqiqotchi bu ilmiy ishida Imom Termiziy “Jome’u-t-Termiziy” asarida Imom Buxoriydan bir yuz o‘n to‘rt o‘rinda istefoda olganligini ham aytib o‘tgan. O‘n uchtasi tahorat kitobida, yigirmatasi namoz kitobida, to‘rttasi zakot kitobida, oltitasi ro‘za kitobida, beshtasi haj kitobida, yettitasi janoza kitobida, yettitasi nikoh kitobida, uchtasi savdo kitobida, ikkitasi ahkom kitobida, to‘rttasi hadlar kitobida, bittasi iyd kitobida, uchtasi nazrlar kitobida, oltitasi jihatning fazli bobida, beshtasi libos bobida, ikkitasi taomlar bobida, bittasi ichimliklar bobida, bittasi yaxshilik bobida, bittasi fitnalar bobida, uchtasi jannat sifatleri bobida, bittasi jahannam sifatleri bobida, beshtasi izn so‘rash bobida, uchtasi fazoilu-l-quron bobida, beshtasi tafsir bobida, uchtasi duolar bobida, ikkitasi manoqib bobida keltirib o‘tganligini muallif tadqiqotida keltirib o‘tgan³.

² Mahmud Fuziy Kabisiy. Tarixu-l-islom va Vafayotu-l-mashohir kitobidagi Termizlik allomalar // Termiziy ulamolarning islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi. – 2021. – № . – B. 32-48.

³ Mahmud Abdulloh Abdurramon Abdulhalim. Imom Termiziy va ilmiy merosi // Termiziy ulamolarning islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi. – 2021. – № 3. – B. 48-61.

Bu ilmiy ishda Imom Termiziyning nafaqat hadis rivoyati balki hadis illatlari, rijollari borasida ham Imom Buxoriydan ilm o‘rganganligini ham o‘z tadqiqotida bayon qilib o‘tgan. Muallif alloma fiqhda ahli hadislarni mazhabida bo‘lganligini ham yoritib misollari bilan bayon qilib berganlar. Imom Termiziy yozgan asarlarini ham keltirgan.

Tadqiqotchi allomaning asarini boshqa jomelardan farqli va afzal taraflarini ham yoritib o‘tgan. Allomaning shox asari o‘z ichiga olgan foydalar va ilmlarni ham bayon qilib o‘tgan.

Ushbu tadqiqotda allomaning shox asarini fiqhiy jihatlari, hadis ilmlari ichidan illatlar, rijollar, mazhablar borasida ba’zi misollar ostida qisman bayon qilib o‘tilgan. Asarning boshqa jome’lardan farqi va ularda topilmaydigan jihatlari ham yoritib o‘tilgan.

Bu ilmiy ishda Imom Termiziyning ilmiy faoliyati, asarlari, ilm yo‘lidagi ustozlari, “Jome” asaridagi rivoyat va diroyatdagi ustozlari, allomaning asaridagi hadis ilmiga doir ilmlarni yoritilishi borasida so‘z yuritilgan. Lekin bu ilmiy ishda Imom Termiziyning shox asaridagi aqidaviy hadislarga va ularning yoritilishiga urg‘u berilmagan.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, filologiya fanlari doktori, professor Zohidjon Islomov “Termizlik allomlar ilmiy merosi” borasidagi maqolasida Termiz shahrida yashab ijod qilgan ulamolarni qatorida Imom Termiziy ham keltirganlar⁴. Bu ilmiy ishda Termizdan yetishib chiqqan allomalar keltirilib, ular qoldirgan ilmiy meroslar hozirda qaysi kutubxonalarda saqlanayotganligi borasida so‘z yuritilgan. Lekin bu ilmiy ishda Imom Termiziyning shox asari va undagi hadislar, allomaning hadis istelohiga qo‘shgan hissasi, asardagi aqidaga doir hadislar tahlili yoritilmagan.

Davron Maqsudov “Imom Termiziyning Sunan Termiziy asarida oyatlar sharhiga oid hadislar” mavzusidagi tadqiqotida Imom Termiziyning shox asaridagi quron oyatlarini tafsiriga doir hadislarni yoritib o‘tgan. Tadqiqotda

⁴ Islomov Z. Termizilik Allomalar ilmiy merosi // Termiziy ulamolarning islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi. – 2021. – № 4. – B. 61-65.

quron qiroatiga, quronni tafsir qilishlik boblarida kelgan hadislar yoritib o‘tilgan. Quron tafsiri kitobida 377 ta hadis keltirilganligi, ushbu bob Fotiha surasi bilan boshlanib qurondagi oxirgi sura bo‘lmish nos surasigacha bo‘lgan suralarning ko‘p qismi keltirilganligi aytilgan. Tadqiqotchi ayrim suralarga nechta hadis keltirilganigacha aytib o‘tgan. Fotiha surasiga 5 ta hadis, baqara surasini tafsiriga 37 ta hadis keltirgan. Bu tadqiqotda ba’zi oyatlarning sababi nuzuli borasida va haj amallariga tegishli masalalardan maqomda namoz o‘qish, safo va marvada say qilish masalalarini ham asarda kelgan hadislar asosida yoritib berilgan⁵.

Ushbu tadqiqot Imom Termiziyning “Jome” asaridagi tafsirga doir hadislar o‘rganilib tahlil qilingan. Undagi ayrim sababi nuzul va fiqhga doir mavzular qisman yoritib berilgan. Lekin allomaning asaridagi boshqa boblarga urg‘u berilmagan.

Muzaffarxon Joniyev tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori “Imom Buxoriy va Imom Termiziyning o‘zaro ilmiy munosabatlari” borasidagi tadqiqotida ikki allomaning ilmiy faoliyati, ustoz-shogirtlik o‘rinlari, ularning hadis ilmida qoldirgan nodir asarlarini o‘zaro bog‘liqligi va farqli jihatlari, bu ikki olimning hadis illatlari borasidagi jarh va ta’dil ilmiga qo‘shgan hissalarini borasida so‘z yuritilgan.

Tadqiqotchi ilmiy ishida Imom termiziyning shox asarida 3956 ta hadis yig‘ilganligini, ulardan 1280 tasi sahih olti kitobda uchramasligi, Imom Termiziy Imom Buxoriydan o‘z asarida 39 ta hadis rivoyat qilgani va yana beshta Imom Buxoriy ham keltirgan hadislar borligini ham bayon qilib o‘tgan. Bundan tashqari Imom Termiziyning asarida umumiy 46 ta kitob va 2496 ta bob va 3956 ta hadislar jamlanganini ba’zi nusxalarda bu adad o‘zgarib turishini ham bayon qilgan⁶.

Bu ilmiy ishda imom Termiziyning ilmiy faoliyati Imom Buxoriy bilan solishtirib ko‘rsatilgan. Ilmiy ishda Imom Termiziyning shox asaridagi hadislar soni boblari va Imom Buxoriydan qilgan rivoyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Lekin Bu

⁵ Mahsudov D. Imom Termiziyning “Sunan Termiziy” da oyatlar sharhiga oid hadislar // Termiziy ulamolarning islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi. – 2021. – № 5. – B. 66-70.

⁶ Muzaffarxon Joniyev. Imom Buxoriy va Imom Termiziyning o‘zaro ilmiy munosabatlari // Termiziy ulamolarning islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi. – 2021. – № 6. – B.71-74.

tadqiqotda allomaning asaridagi aqidaga oid hadislarga va ularning kompleks miqyosida tahlil qilishga urg'u berilmagan.

Doniyor Muratov tarix fanlari nomzodi "Imom termiziy sunan asari uslubi xususida" tadqiqotida hadis to'plamlari ilk bor qanchondan yozila boshlagani va sahih, sunanga ajralishi, sahih to'plamlarida qanday hadislar uchrashi sunan to'plamlari esa hukmiy hadislarni o'zida jamlagan asarlar ekanligi aytib o'tilgan. Hadis to'plamlari orasidan jomelar o'zida aqida, tarix, manoqib, riqoq, fitnalar, siyrat kabi masalarni jamlagan to'plamdir.

Tadqiqotda hadis to'plamlarini tabaqalari ham yoritib o'tilgan. Allomaning asari esa Imom Buxoriy va Muslimni sahih asaridan so'ng, Abu Dovudni "Sunan" asari, Ahmad ibn Hanbalni "Musnad" asarlari bilan bir qatorida keltirilishi ham bayon qilib o'tilgan.

Izlanuvchi ilmiy ishida alloma o'z asarida qo'llagan uslublarni ham bayon qilib o'tgan. Bu uslublardan alloma bir hadisga sahihlik hukmini bersa uning sahih hadislar orasidagi darajasini ham aytib o'tgan, asarda hadis rivoyat qilinganidan so'ng bu borada kimlardan hadis rivoyat qilinganini ham aytib o'tgan. Faqihlarni so'zlari, hadisdagi ixtiloflarni, hadisni nasx qilingani, undagi g'arib so'zlar barchasini yoritib o'tgan. Alloma o'z asarida faqihlar amal qilgan hadislarni jamlashlikni shart qilganligi ham tadqiqotchi chetta qoldirmagan⁷.

Tadqiqotchi ilmiy ishida alloma o'z asarida qo'llagan ba'zi hadis istelohlarini ham keltirib o'tgan.

Izlanuvchi ilmiy ishida allomaning shox asaridagi uslubi qanday ekanligini ayrim jihatlarini yoritib o'tgan. Lekin allomaning uslubi va bu uslubdan ko'zlagan maqsadi nima ekanligi, asardagi keltirilgan istelohlar ham barchasi aytib o'tilmagan. Asardagi aqidaga oid hadislar borasida so'z ochilmagan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. "Quroni karim"
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri hilol".
3. "Sahihul-Buxoriy". 1410 h. (1990 m.) ikkinchi bosmasi, Shayh Muxammad

⁷ Muratov D. Imom Termiziy "Sunan" asari uslubi xususida // Termiziy ulamolarning islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi. – 2021. – № 7. – B. 74-79.

Muhiddin Abdulhamid. Misr.

4. "Sihhatu-sitta". Shayx Shamsuddinon ibni Ziyovuddinon. Sharxlar hqidagi bobdan.

5. "Asomiy mashoyihul Buxoriy". Muxammad ibn Is'hoq .1411h. (1991 m). Maktabatul kavсар. Saudiya.

6. "Mustalhul hadis". Muxammad solih usayman.

7."Umdatul Qori fiy sharhul-Buxoriy".

10. Karachida nashr qilingan "Sahihul-Buxoriy" ning muqaddimasidan.